

**MA'NODOSH SO'ZLARNI O'QITISHDA SAMARALI
USULLARDAN FOYDALANISH**

Robiya G'iyosiddin qizi Rizayeva

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

3-bosqich talabasi

[*rizayevrobiya9@gmail.com*](mailto:rizayevrobiya9@gmail.com)

Annotatsiya : *Mazkur maqolada til boyligi sanalgan ma'nodosh so'zlar tavsifi, 10-sinf o'quvchilari nutqida ma'nodosh so'zlardan samarali foydalanish ko'nikmasini shakllantirish va uni faollashtirish bo'yicha metodik tizimning takomillashtirilgan yo'llari yoritilgan. Unda ma'nodosh so'zlarning lug'aviy boyluk (lingvistik kompetensiya) hamda nutqiy kompetensiyaning oshirishdagi ahamiyati, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq faoliyatini rivojlantirishdagi o'rni va ularni o'rgatishda samarali vosita bo'lib xizmat qiluvchi interaktiv usullar, mashq va topshiriqlar (didaktik materiallar) keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *ma'nodoshlar, usullar, takrorlar, kompetensiya, didaktik materiallar, xulosalar.*

Abstract: *This article describes synonyms, which are considered a linguistic asset, and describes improved methods of a methodological system for the formation and activation of the skill of effective use of synonyms in the speech of 10th grade students. It discusses the importance of synonyms in increasing vocabulary (linguistic competence) and speech competence, their role in the development of oral and written speech activities of first-graders, and interactive methods, exercises and tasks (didactic materials) that serve as effective tools for teaching them.*

Keywords: *synonyms, methods, repetitions, competence, didactic materials, conclusions.*

Абстрактный: *В данной статье дается характеристика синонимов,*

которые считаются языковым активом, а также описываются усовершенствованные пути разработки методической системы формирования и активизации навыка эффективного использования синонимов в речи учащихся 10-х классов. Подчеркивается значение синонимов в расширении словарного запаса (языковой компетенции) и речевой компетенции, их роль в развитии устной и письменной речи учащихся, а также интерактивные методы, упражнения и задания (дидактические материалы), которые служат эффективными инструментами их обучения.

Ключевые слова: синонимы, методы, повторения, компетентность, дидактические материалы, выводы

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, ularning fikrini ravon, aniq va mantiqiy bayon eta olish malakasini shakllantirish ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'quvchilar nutqida tilimizning boyligi sanalgan ma'nodosh so'z(sinonim)lardan to'g'ri va o'rinli foydalanish ko'nikmasini hosil qilish ularning nutq boyligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maqolada ma'nodosh so'zlardan o'rinli foydalanish natijasida o'quvchilarda uchrashi mumkin bo'lgan "o'rinsiz takrorlar"ga chek qo'yish sabablari batafsil yoritilgan. 10-sinf o'quvchilari nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish natijasida ularning og'zaki nutq boyligini oshirish usullari, xulosalari ko'rsatilgan. Ma'nodosh so'zlar nutqning ifodaliligi va aniqligini ta'minlovchi vositalardan biri sifatida o'quvchilarning til madaniyatini yuksaltirishda katta rol o'ynaydi. Shu bois, 10-sinf o'quvchilari nutqida ushbu so'zlarni faollashtirishga qaratilgan metodik tizimni shakllantirish asosiy masalalardan biridir.

Shirali, boy va to'g'ri nutq tuza olish uchun, avvalo, so'zlovchining so'z zaxirasi boy bo'lmog'i lozim. Xuddi shu kabi, nutqning boyligini ta'minlashda, ayniqsa, ma'nodoshlik (sinonimiya) katta ahamiyatga ega. Barchamizga

ma'lumki, ma'nodoshlik hosil qilish, faqat so'zlar doirasidagina uchramaydi, balki morfologik, sintaktik va frazeologik birliklar doirasida ham keng tarqalgan.[5] Ularni o'quvchilar nutqida faollashtirish va to'g'ri qo'llash bo'yicha bir qator olimlar o'zlarining kitoblarida samarali usullardan foydalanish muhim ekanligini keltirib o'tganlar. Jumladan, o'zbek olimlaridan *A. G'ulomov, B. To'xliyev, D. Yuldasheva* kabi metodist olimlar ma'nodosh so'zlarni o'qitishda eng muhim sanalgan interaktiv (interfaol) usullar, metodlar bo'yicha fikr bildirishgan.

10-sinf o'quvchilari nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish va ulardan o'rinli foydalanish maqsadida quyidagi usullar yoki metodlar samaralidir.[2]

1. "So'zlar xazinasini";
2. "Transformatsiya (*so'zlar almashinuvi*)" usuli;
3. Matndan ma'nodosh so'zlarni ajratib olish usuli;
4. Sinonim so'zlar lug'ati bilan ishlash;
5. "Sinonimlar zanjiri";
6. Ma'nodosh so'zlar ishtirokida hikoya tuzish;

<i>So'zlar</i>	<i>1-sinonim</i>	<i>2-sinonim</i>	<i>3-sinonim</i>	<i>4-sinonim</i>
<i>katta</i>	<i>ulkan</i>	<i>bahaybat</i>	<i>yirik</i>	<i>buyuk</i>
<i>kuchsiz</i>				
<i>kabi</i>				
<i>Kambag'al</i>				
<i>kasal</i>				
<i>kam</i>				
<i>kerak</i>				

1. "Qaysi biri ortiqcha?" metodi.

“So‘zlar xazinası” metodiga asoslangan holda, ma’nodosh so‘zlarni o‘qitish quyidagi tarzda olib boriladi:

Yuqoridagi metod o‘quvchilar uchun foydali metodlardan biri bo‘lib, bunda o‘quvchilar o‘z bilim saviyasidan kelib chiqqan holda jadvalni tugallaydilar. Qaysi guruh to‘g‘ri va aniq ma’nodosh so‘zlar jadvalini tugallasa, o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi. 10-sinf o‘quvchilarining ma’nodosh so‘zlarni o‘zlashtirishidagi eng foydali usullardan biri bu sinonimik qatorni tuzish hisoblanadi. Bunda o‘quvchilar yangi so‘zlarni o‘z lug‘at boyliklariga kiritadilar. Bu kabi usullarni o‘qitishda quyidagi amallarni bajarish lozim:[1]

1. *Mavjud so‘zlarga ma’nodoshlar topish;*
2. *10-sinf ona tili darsligidagi “Sinonimlar uslubi” mavzusida berilgan matndan yoki badiiy parchadan ma’nodoshlarni ajratish;*
3. *Ma’nodoshlar asosida saylanma diktant yaratish;*
4. *Ma’nodosh so‘zlarning ma’no nozikliklarini topish.*

Sinonim so‘zlardan foydalanish nutqni boy va ta’sirchan qiladi. Shuningdek, ular *ortiqcha takroriylik (taftologiya)*dan chekinishga sabab bo‘ladi. Ma’nodosh so‘zlardan foydalanishda o‘quvchilarda nafaqat *lingvistik kompetensiya* ko‘nikmasi rivojlanadi, balki *nutqiy kompetensiya* ko‘nikmasi ham shakllanadi. Ma’nodosh so‘zlardan o‘rinli foydalanish og‘zaki va yozma nutqni ifodali, lo‘nda, ravon va tiniq aks ettirishda ahamiyatlidir. “*Transformatsiya*” usuli asosida ma’nodosh so‘zlarni o‘qitishda gapdagi bir so‘zni o‘z ma’nodoshiga almashtirib qo‘llash orqali gapning mazmunini saqlab qolish nazarda tutiladi. Masalan:

Asl gap: U latofatli qizning maktubini kutardi.

O‘zgartirilgan holat: U suluv qizning maktubini kutardi.

O‘zgartirilgan holat: U chiroyli malakning xatini kutardi.

O‘zgartirilgan holat: U go‘zal qizning xatini kutardi.

O‘zgartirilgan holat: U maftunkor qizning xatini kutardi.

Bu metod har bir gapdagi so‘zlarni o‘z ma’nodoshlariga almashtirish orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilar bu gaplardagi sinonimlarni ma’no nozikliklari

bo'yicha ham ma'nodoshlik qatoriga ko'ra guruhlaydilar.

1-guruh *Latofatli, ...*

2-guruh *qiz, ...*

3-guruh *maktub, ...*

Gaplardagi ma'nodoshi mavjud bo'lmagan so'zlarni alohida guruh qiladilar.

“Matndan ma'nodosh so'zlarni ajratib yozish”[3] usuli eng ko'p qo'llanadigan usullardan biridir. Bunda tegishli mavzuga oid kichik hajmli badiiy, ilmiy, publitsistik va rasmiy matn beriladi. O'quvchilar matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ma'nodoshlarini aniqlaydilar. Bu usul orqali o'quvchilarda yozma nutq ko'nikmasi shakllanadi, so'zlarning ma'nosidan matnda to'g'ri foydalana olishadi, mantiqiy jihatdan to'g'ri gaplar tuzish qobiliyati rivojlanadi.

Qadimda bir podshoh katta hovuz qurdiribdi. Xalqni jamlab, e'lon beribdi: -Men bu hovuzning sut bilan to'ldirilishini xohlayman. Hamma kechasi bir kosadan sut olib kelib hovuzga quysin. Ertalab hovuz bo'yida yig'ilamiz. Dunyoga dong'i ketgan hovuz bo'lsin. Hamma uy-uyiga tarqalibdi. Voqeamiz qahramoni ham uyga qaytibdi. U yarim tunda bir kosa sutni olib uydan chiqibdi. Bir-ikki qadam tashlagach, xayoliga shunday fikr kelibdi: ‘Hozir yarim tun. Hech kim ko'rmayapti. Keyin hamma sut quyganda, men bir kosa suv quysam, bilinmay ketadi. Qaytaga bir kosa sut yonimga qoladi’. Uyga qaytib, bir kosa sut o'rniga bir kosa suvni olib, hovuzga quyib kelibdi. Tong otibdi. Podshoh, amaldorlar va butun xalq sut bilan to'ldirilgan hovuzni tomosha qilgani yetib kelishibdi. Ming hayajon bilan ko'rsalarki, hovuz to'la suv ekan... Qolganlar ham bizning qahramonimiz kabi ‘Men suv quysam, qolganlarniki bilan bilinmay ketadi. Sut quyganim bilan biror narsa o'zgarib qolarmidi?-deb o'ylab, suv quyib ketishgan ekan’. O'sha qahramon kimligini bilasizmi? Siz va men! Siz-u bizning o'zgarishimiz butun jamiyatni o'zgartiradi. Odam yukini boshqalarga tashlayvermasdan, mas'uliyatni zimmasiga olib, butun insoniyatga foyda keltirishni maqsad qilib yashay boshlashi kerak. Afsuski, biz ko'pincha huquqimizni talab qilamiz-u, majburiyatlarimizni unutib qo'yamiz. Aslida, bizning

huquq va majburiyatlarimiz qaysi nuqtada birlashadi? (Internetdan)[4]

“Qaysi biri ortiqcha?” metodi asosida 10-sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi rivojlanadi. Ma’nodosh so‘zlar qatorida qaysi so‘z mazmun jihatdan ma’nodoshlik hosil qila olmasligini topadilar. Ma’nodoshlik qatoridagi so‘zlarni ma’no darajalariga ko‘ra ijobiy yoki salbiy ekanligini muhokama qiladilar.

<i>gulshan</i>	<i>guliston</i>	<i>gulzor</i>	<i>bog‘</i>	<i>bo‘ston</i>	<i>gulbog‘</i>	<i>chaman</i>
<i>gapirmoq</i>	<i>demoq</i>	<i>javramoq</i>	<i>valdiramoq</i>	<i>bobillamoq</i>	<i>vaysamoq</i>	<i>sayramoq</i>
<i>avzo</i>	<i>angor</i>	<i>turq</i>	<i>tal‘at</i>	<i>diydor</i>	<i>qiyofa</i>	<i>atvor</i>
<i>tabassum</i>	<i>jilmaymoq</i>	<i>irshayish</i>	<i>kulmoq</i>	<i>tirjaymoq</i>	<i>iljaymoq</i>	<i>ishshaymoq</i>
<i>hamdam</i>	<i>yor</i>	<i>o‘rtoq</i>	<i>oshno</i>	<i>birodar</i>	<i>do‘st</i>	<i>rafiq</i>

Yuqorida metodlar asosida 10-sinf o‘quvchilariga ma’nodosh so‘zlarni qay tartibda o‘qitish kerakligi yoritib o‘tildi. Bundan tashqari, ma’nodosh so‘zlarni o‘rgatishda yana bir necha usullardan foydalanish mumkin. Masalan, “Klaster” metodi (bosh so‘z asosiy doirada beriladi), ijodiy topshiriq (sinonimlar asosida minihikoya tuzish), sinonim juftliklarni topish (test shaklida) va boshqalar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, 10-sinf o‘quvchilariga ma’nodosh so‘zlarni o‘qitish ularning so‘z boyligini oshirish, nutq madaniyatini shakllantirish va fikrni ravon ifodalash ko‘nikmasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ko‘rib chiqilgan samarali metodlar - klaster metodi, muqobil so‘z tanlash, matn asosida tahlil qilish kabi usullar – dars jarayonini jonlantirib, o‘quvchilarni faol fikrlashga undaydi. Bu kabi topshiriqlar orqali o‘quvchilar ma’nodosh so‘zlarning nozik ma’no tafovutlarini anglab, ularni kontekstga mos holda ishlatish malakasiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, bunday usullar darslarni qiziqarli va samarali o‘tkazishga, o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. G'ulomov va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent – “Fan va texnologiya”-2012.
2. B.To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova.O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.
3. D.N. Yuldasheva. “O'zbek tilini o'qitish metodikasi”. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2021. – 424 b.
4. Ona tili 10 [Matn]: 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. –224 b.
5. 11-sinf uchun darslik. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2018.